

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
KOREYS FILOLOGIYASI KAFEDRASI

SAIDMURODOVA LAYLO RAVSHANOVNA

**KOREYS TILIDA BOSH KELISHIK QO'SHIMCHASINING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI VA UNING SEMANTIK TAHLILI**

5220100 - FILOLOGIYA YO'NALISHI

Ilmiy rahbar: f.f.n. Saidazimova U.T.

TOSHKENT – 2013

Reja:

I.	Kirish.....	3
II.	Asosiyqism.....	6
	1.1 Bosh kelishikninggrammatikma'nosi.....	6
	1.2 Bosh kelishikningboshqaqo'shimchalar bilanma'nodoshligi.....	13
	1.3 Bosh kelishikningbadiiyasardaqo'llanishdoirasivatahlili.....	17
III.	Xulosa.....	21
IV.	Foydalanilganadabiyotlarro'yxati.....	23

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, xorijiy tillarni o'rganishga keng yo'l ochib berildi. Xususan, koreys tilini o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz va Janubiy Koreya Respublikasi o'rtasidagi keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ilmiy aloqalarning rivojlanib borayotganligi bu tilni yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda.¹

Hozirda til, uning rivojlanish tendensiyalari, jamiyatga ta'siri kabi masalalarni tadqiq etish nafaqat mahalliy yoki mintaqaviy, balki umuminsoniy ahamiyat, global miqyos kasb etmoqda. Biz buni so'nggi yillarda O'zbekistonning qator xorijiy mamlakatlar, jumladan Janubiy Koreya Respublikasi bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalari o'sib borayotgani misolida ko'rishimiz mumkin.

Kurs ishi uchun tanlangan mavzu koreys tilidagi bosh kelishik va uning semantik tahliliga bag'ishlangan. Bosh kelishikning gapdagi o'rni va ahamiyati muhim hisoblanib, u gap qurilishida o'ziga xos grammatik ma'noga ega sanaladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Koreys tilidagi kelishiklarning qo'llanilishiva ularning o'ziga xos xususiyatlari, umuman bosh kelishik bilan bog'liq masalalarkoreys tadqiqotchilari tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Kim Jong Suk (김정숙) va Pak Dong Hou (박동호) ning 2004-yil Seulda chop etilgan “한국어문법 1” (Koreys tili grammatikasi 1) va “한국어문법 2” (Koreys tili grammatikasi 2) to'plamida bosh kelishikning gapdagi turli ma'nolari va o'rni keng yoritilgan. Lee Ju Heng (이주행) ning 2002-yilda chop etilgan “한국어문법의이해” (Koreys tili grammatikasini tushunish) kitobida esa bosh kelishikning yordamchi qo'shimchalar bilan ma'nodoshligi haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

¹Габрусенко Т. Корейская литература и российский читатель. Русский журнал Круг чтения. – М., 2000.С-4.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi bosh kelishik va uning ifodalanishi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarni o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun kurs ishi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. Koreys tilida bosh kelishik qo'shimchasi bilan bog'liq vaziyatlarni o'rganish;
2. Bosh kelishik bilan bog'liq tilbirliklariga oid kengroq va chuqurroq ma'lumotlar to'plash;
3. Bosh kelishik qo'shimchasi bilan ma'nodosh holatda qo'llana oluvchi qo'shimchalarni o'rganish va sinonimlik darajasini aniqlash;
4. Bosh kelishikning badiiy asarda tutgan o'rnini tahlil etish;

Tadqiqotning predmeti va ob'yekti. Koreys tilidagi bosh kelishik va uning semantik tahlili kurs ishining ob'yekti sanaladi. Bosh kelishik qo'shimchasi hisoblanuvchi **-이/가** qo'himchasi esa ishning predmeti qilib olindi.

Tadqiq etilgan ishning ilmiy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy-amaliy ahamiyatikoreys tilidagi bosh kelishikning o'zbek tilida ifodalanishini atroflicha o'rganish uchun zamin yaratadi. Ushbu tadqiqot ishi koreys tilini o'rgatish va o'quv qo'llanmalar tuzishda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi: Kurs ishi kirish, III ta bo'limni o'z ichiga oluvchi asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi ko'rsatilib, maqsad va vazifalar belgilandi. Asosiy qismda bosh kelishik haqida umumiy ma'lumot berilib, qo'shimchalarining tarixiga, gapda qo'llanish darajasi va sinonim qo'shimchalari haqida to'xtaldi. Shu bilan birga, bosh kelishikning maxsus qo'llanish usuli va yordamchi qismda qo'llanishi yoritildi. Xulosada o'rganilib chiqilgan tajribalarga muvofiq chiqarilgan fikrlar bayon etildi. . Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ishni amalga oshirishda qo'llanilgan koreys va o'zbek tillaridagi darslik va o'quv qo'llanmalar, badiiy asarlar hamda lug'atlar keltirildi. Kurs ishida o'zbek tilida keltirilgan misollar

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridan, koreys tilida keltirilgan misollar esa "한국전래동화" (Koreys milliy ertaklari) to'plamidan olindi.

ASOSIY QISM

1.1 Bosh kelishikning grammatik ma'nosi

Bosh kelishik shaxsni, predmetni, narsa-hodisani nomini atab kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi Bosh kelishikdagi so'z boshqa so'zlarga hokim bo'lganligi sababli, gapda ega bo'lib keladi.²

a) Dadam bilan oyim gapiraveradi.³

b) Zum o'tmay eshik ochildi.⁴

a) va b) misollarda kim? nima? so'roqlariga javob bo'luvchi "dadam", "oyim" va "eshik" so'zlari bosh kelishik shaklida kelgan.

Koreys tilida bosh kelishik bir gapning egalik qismiga qo'shiladigan qo'shimcha hisoblanib, **주격조사** deb ataladi. Bosh kelishik qo'shimchasi ikki xil ya'ni **-이** va **-가** ko'rinishida bo'lib, ular qo'llanish o'rniga qarab farqlanadi. -이 so'z oxiri undosh harf bilan yakunlanganda, -가 esa unli harf bilan yakunlanganda so'z so'ngiga qo'shiladi.⁵

a. 여기는 눈**이** 많다.

Bu yerda qor ko'p.

사람들은 시간**이** 지나가는 것을 여러 가지 말로 비유한다.

Insonlar vaqt o'tishini turli gaplar bilan ifodalashadi.

b. 일분 일초**가** 급한 데 퇴근이라니.

1 daqiqa kam bo'lsada, keta olamiz.

누구든지 자기**가** 세운 계획대로 살 수 있다고 하면 얼마나 좋을가?

Har kim o'zi tuzgan rejalar asosida yashasa qanchalar yaxshi!

Yuqorida keltirilgan a) misolda bosh kelishik qo'shimchasi **-이** undosh harf bilan tugagan so'zga qo'shilgan bo'lsa, b) misolda unli harf bilan

²Xolmanova Z.T, Tilshunoslikka kirish, T-2007,-98b

³O'tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi-T.Meriyus 2011 30b

⁴O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi-T.Meriyus 2011 44b

⁵이익섭, 한국어문법 1, 서울대학교출판부, 2004.-113 쪽

yakunlangan so'zga -가 qo'shimchasi birikib kelganini va u birikib kelgan so'z ega vazifasida kelayotganini ko'ramiz.

Ushbu qo'shimchalarning tarixiga e'tibor bersak, -이 qo'shimchasi ancha oldinroq shakllanib qo'llangan bo'lsa, -가 qo'shimchasi nisbatan keyinroq, ya'ni XVI asrda paydo bo'lib, muomalaga kiritilgan.⁶

(a)한밤중에이상한일이이러났다.

Bir kechada g'aroyib ishlar sodir bo'ldi.

(b)여우가그렇게말했습니다.

Tulki shunday debdi.

Bosh kelishikning gapdaqo'llanishi.

1. Bosh kelishikning ot so'z turkumiga birikishi:

a) 오늘본시험이너무어려웠어요.

Bugungi imtihonim juda qiyin edi.

b) 친구가도아주었다고요?

Do'sting yordam so'radimi?

Yuqoridagi a) va b) misollarda bosh kelishik birlikdagi turdosh otlar bilan kelgan. Bundan tashqari bosh kelishik atoqli va ko'plikdagi otlar bilan ham qo'llanadi.⁷

a) 아들이사과를많이먹었다.

Bolalar ko'p olma yeyishdi.

b) 쑤미가끝까지참았다.

Sumi oxirigacha chidadi.

2. Bosh kelishikning olmosh bilan qo'llanishi:

a) 어디가마음에들면있을수있어요

Qayer yoqsa o'sha yerda o'tirishingiz mumkin.

⁶이익섭, 한국어문법, 서울대학교출판부, 2004.-113 쪽

⁷국어문법, 서정수, 한양대학교-1996

Yuqoridaboshkelishikso'roqolmoshigaqo'shilibkelgan.Suhbatjarayonidaso'roqolmoshigajavobbo'luvchiso'zghamboshkelishikbirikadi.

Masalan:

가: 모두 뭣이떠납니까?

A: Necha kishi ketdi?

나: 둘이떠납니다.

B: Ikkovi ham ketdi.

b) 모두 가이말을알아들었다.

Hamma bu gapni tushundi.

c) 여기 가우리집아니다.

Bu bizning uy emas.

Yuqoridagi misollarda bosh kelishikning so'roq va ko'rsatish olmoshlariga birikib kelganini kuzatdik.. Shuningdek, bosh kelishik kishilik olmoshlariga ham qo'shiladi.Ammo, ba'zi olmoshlarga qo'shilganda so'z tarkibida o'zgarish bo'ladi. Ya'ni, “누구” - “kim?” olmoshiga -가 qo'shilsa, “누가” tarzida, “너” – “sen”, “나” – “men” olmoshlari esa “네가”, “내가” tarzida o'qiladi va yoziladi:

a) 이번에는 누가이겼어요?

Bu safar kim g'olib bo'ldi?

b) 네가이일을했니?

Bu ishni sen qildingmi?

c) 다음에는 내가출장을가기로했다.

Keyingi safar men ham borishga qaror qildim.

3. Bosh kelishikning faqat ot va olmosh so'z turkumiga mansub so'zlariga emas, son so'z turkumiga xos sanoq, hisob va tartib so'zlariga ham birikadi:

a) 한국에온지 벌써한해가지났어요.

Koreyaga kelganimga endi bir yil bo'lgandi.

b) 주머니에 사탕세개가있었어요.

Cho'ntagimda uchta konfet bor edi.

c) 첫째가«복»라는오래사는것이다.

Birinchidan,baxt uzoq umr ko'rishdir.

d) 방에서두사람이앉아있었다.

Xonada ikki kishi o'tirgan edi.

4. Majhul nisbat shaklidagi fe'lga birikuvchi egaga qo'shiladi⁸:

a) 사과가다팔렸다.

Olmaning hammasi sotildi.

b) 여자의울음소리가멀리에서들렸다.

Uzoqdan qizning yig'i ovozi eshitildi.

c) 멀리바다가보인다.

Uzoqdan dengiz ko'rindi.

5. Qo'shma gaplar tarkibidagi egaga birikadi:

a) 비가오면우리도가지않겠다.

Yomg'ir yog'sa, biz ham bormaymiz.

b) 사람이많으면일이더빨리끝내질수있었다.

Odam ko'proq bo'lganda, bu ish tezroq tugashi mumkin edi.

Yordamchi qismda bosh kelishik. “되다”fe'li va“아니다” sifatlaridan oldin

qo'llanuvchi ot so'z turkumidagi so'zga, albatta,-이 yoki -가 qo'shimchasi

qo'shiladi va grammatik ma'no anglatadi.⁹

(a) 너는애국자가아니야.

Sen vatanparvar emassan.

(b) 그사람이언제과장이됐나?

U odam qachon rahbar bo'ldi?

(a) va (b) misollarda keltirilgan 애국자 va 과장 so'zlari o'zbek tilida shaxs otlariga mansub so'zlar hisoblanib, shaxsning kasbi yoki unga berilgan ta'rifni bildiradi. 아니야, 됐나 fe'llaridan oldin kelgan bu so'zlarga -

이/가 qo'shimchalari qo'shib, ularni kesim sifatida shakllanishiga yordam

⁸한국어조사뜻과쓰임, 허동진,한국학술정보-2006,-18-19 쪽

⁹개정판,표준국어문법론-ISBN-89-342-0016-2, 2001,-174 쪽

bermoqda. Agar 애국자가 va 과장이 so'zlari ishtirok etmasa, gapning asosiy mazmuni anglashilmaydi.

Shuningdek, hissiyot fe'llari hisoblanuvchi 기쁘다, 슬프다, 춥다, 징그럽다... kabi fe'llardan oldin kelgan ot yoki olmoshga ham bosh kelishik qo'shimchasi birikib keladi.

(a) 나는네가좋다.

Men seni yaxshi ko'raman.

(b) 나는그사람이싫더라.

Men uni yomon ko'raman.

a) misolda kelgan 좋다 fe'li hissiyot fe'li sifatida ifodalangan bo'lib, uni “오늘날씨가잠좋다.”(Bugun havo juda yaxshi.) gapidagi sifat so'z turkumiga mansub bo'lgan 좋다 bilan almashtirmaslik lozim. Shuningdek, 좋다 fe'liga 아/어하다 ko'makchi fe'lini qo'shsak ham “yaxshi ko'rmoq” degan hissiyot fe'liga aylanadi. Ammo 좋아하다 (yoqtirmoq) fe'li o'zidan oldin bosh kelishik qo'shimchasi -이/가 ni emas, tushum kelishigi qo'shimchasi -을/를 ning kelishini talab etadi¹⁰:

a) 어머니는가을을좋아한다.

Onam kuzni yaxshi ko'radi.

Maxsus foydalanish usuli

Bosh kelishik quyidagi misollardagi singari asosiy qismlarda qo'llaniladi:

a) 갑자기라일락향기가맡고싶구나.

b) 갑자기라일락향기를맡고싶구나.

Yuqoridagi har ikkala gap bir xil (to'satdan muattar gul hidini hidlagim keldi.) tarjima qilinsada, 싶다 fe'li kesim sifatida qo'llanilganda, bosh kelishik o'zi

¹⁰이익섭, 한국어문법, 서울대학교출판부, 2004.-123 xx

birikkan otga aniqlilik yuklasa, tushum kelishigi hisoblanuvchi -를 qo'shimchasi gapning tabiiyligini ta'minlaydi.¹¹

a) 나는그말이싫지**가**않았다.

b) 나는그말이싫지**를**않았다.

c) 나는그말이싫지_않았다.

Menga bu gap yoqdi.

Yuqoridagi gaplar ham bir xil tarjima qilinsa-da, bosh kelishik qo'shimchasi ishlatilmasdan tushib qolishi nutqning tabiiyligini oshirgan.

Shuning uchun odatda og'zaki nutqda bosh kelishik qo'shimchasining tushib qolishini kuzatamaz¹²:

a) 너어디가니?

Qayerga ketyapsan?

b) 아버지오셨다.어서나와서가방바다라.

Dadang keldi. Tez chiqib sumkasini ol.

Yuqoridagigaplarda boshkelishik qo'llanilmasa ham ma'no o'zgarmaydi. Shuning uchun ba'zi badiiy adabiyotlarda ham uning tushirilib qolishini kuzatishimiz mumkin¹³:

a) 군함파도를가르고나아간다.

Kema to'lqinlar uzra suzib ketdi.

b) 하늘무척높고푸르다.

Koinot cheksiz va yorug'.

Yuqoridagi a) va b) misollarda o'quvchiga oson va tabiiy nutq orqali fikrni yetkazish uchun bosh kelishik qo'llanilmagan.

Shuningdek, bir gapda bosh kelishikni bir necha bor qo'llash mumkin:

a) 철수네집**이**마당**이**가장넓다.

¹¹이주행, 한국어문법의이해, ISBN-89-8477-106-6,2004,-148 쪽

¹²이익섭, 한국어문법 2,서울대학교출판부,2004.-115 쪽

¹³이익섭, 한국어문법 2,서울대학교출판부,2004.-122 쪽

Cholsuning uyining maydoni judayam keng ekan.

b) 어린아이**가**사탕**이**꽤 훌륭하구나.

Yosh bolalar shirinlikni judayam yoqtirishadi-a?

1.2 Bosh kelishikning boshqa qo'shimchalar bilan ma'nodoshligi

Bosh kelishik qo'shimchalari-이 va -가 bilan bir qatorda -께서 qo'shimchasi ham mavjud bo'lib, u ega vazifasida kelgan so'z hurmat ma'nosini ifodalaganda qo'llaniladi:

(a) 교장선생님께서 졸업생들에게 감명깊은 축하를 해주셨다.

Direktor janoblari bituruvchilarga o'z tabrigini izhor etdi.

(b) 중조할아버지께서 이비석을 쓰셨답니다.

Bu qo'llanmani katta bobom yozgan.

Bosh kelishikdagi so'z nufuzli tashkilot yoki guruh nomi shaklida kelsa, -에서 qo'shimchasi bosh kelishik qo'shimchasi sifatida qo'llaniladi:¹⁴

(a) 그때 마침 나라에서 장님을 위한 큰 잔치를 벌였습니다.

O'sha payt butun davlat ko'zi ojizlar uchun katta xayriya o'tkazdi.

(b) 당국에서 책임을 지겠지요.

Yuqori lavozim mas'uliyatni talab etadi.

Shuningdek, bosh kelishik qo'shimchasi o'rnida yordamchi qo'shimchalar ham qo'llaniladi. Ulardan biri -은/는 qo'shimchasi bo'lib, u ham so'zni yakunlovchi harfga qarab turlicha birikadi, ya'ni unli harflar bilan tugagan so'zlarga -는, undosh harf bilan tugagan so'zlarga esa -은 qo'shimchasi qo'shiladi.

a) 고양이는 겨울내내 다락방에서 보냈답니다.

Mushuk butun qishni issiqqina xonada o'tkazibdi.

b) 이곳방은 언제나 편안했어요.

Bu xona judayam shinam ekan.

Bosh kelishik nutqda ma'lum predmet, shaxs, yoki voqelik to'g'risida ilk marta ma'lumot berilganda qo'llaniladi. Ikkinchi marta takrorlanganda esa -은/는 ni qo'llashimiz mumkin:

¹⁴김정숙, 한국어문법 1, 서울, 커뮤니케이션북스, 2005- 124 쪽

a) 옛날에어던남자가살았습니다.

그사람은어머니한분을무사고살았습니다.

Qadimda bir yigit yashagan ekan. U onasini hurmat qilmas ekan.

b) 미선: 5년전인가우리제주도에여행간적이있었지? 잠재미있었지?...

민지: 그랬어. 그때는 좋았어, 그렇지?

Mison: Besh yil oldin Chejudoga sayohat qilgandik-a? Rosa qiziqbo'lgandi-a?

Minji: Haa! U paytlar yaxshi edi! Shunaqami?

(a) misolda “한남자”(bir yigit) ilk bor qo'llanilayotganligi sababli unga -

가 qo'shimchasi qo'shilgan bo'lsa, keying gapda takror kelganligi bois -

은 qo'shimchasi qo'llanilgan.

(b) misolda “5년전인”(besh yil oldin) so'zi birinchi bor qo'llanilganda -

가 qo'shib, ikkinchi gapda aynan o'sha davr nazarda tutilgani sababli

“그때는” holatida kelgan.

Yuqoridagi kabi holatlarda bosh kelishik va yordamchi qo'shimchalar o'rnini almashtirib bo'lmaydi.¹⁵

a) 옛날에여자가살았는데,아주효녀였대요(○)

b) 옛날에여자는살았는데,아주효녀였대요. (x)

Qadimda bir go'zal qiz yashagan ekan.

Bosh kelishik va yordamchi qo'shimcha –은/는 ning farqli tomonlari

quyidagilardan iborat¹⁶:

1) Gapda shaxs nomiga -은/는, shaxsga tegishli predmetga esa -이/가

qo'shiladi:

a) 영수는키가크다.

Yongsuning bo'yi baland.

¹⁵이주행, 한국어문법의이해, ISBN-89-8477-106-6, 2004, -147 쪽

¹⁶김승곤, 한국어의문법, 서울-2005, 214 쪽

- b) 철수는고야이가있다.

Cholsuning mushugi bor.

- 2) Ikki xil predmet solishtirilganda –은/는 qo'shiladi:

- a) 철수는일등이고선회는이등이다.

Cholsu g'olib, Sonhue esa mag'lub bo'ldi.

- b) 겨울은춡고봄은따뜻했다.

Qish sovuq, bahor esa iliq bo'ldi.

- 3) Vaqt birliklari bilan –은/는 qo'llaniladi:

- a) 하루는스물네시간이다.

Bir kun yigirma to'rt soatdan iborat.

- b) 일년은열두달이다.

Bir yilda o'n ikki oy bor.

- 4) Yoshi kattalar huzurida kishilik olmoshiga –은/는 birikib, so'zlovchining nutqiga kamtarlik ma'nosini yuklaydi:

- a) 선생님, 저는잘못이없습니다.

Ustoz, mening aybim yo'q.

- b) 대왕마마, 소접은이제이세상을떠납니다.

Zoti oliylari, Soujop endi bu dunyoda yo'q.

Keyingi yordamchi qo'shimcha -도 bo'lib, u ham bosh kelishik o'rnida qo'llaniladi:

- a) 순회도나와함게수학여행을갔었다.

Sunhue ham men bilan birga sayohatga ketgandi.

Yuqoridagi misollarda bosh kelishik belgisiz qo'llangan deyish mumkin. Ammo, bu yordamchi qo'shimchalar boshqa qo'shimchalar bilan ham birga qo'llana olishi bilan farq qiladi:

- a) 네가나에게는무엇을주겠느냐?

Sen menga nima bera olasan?

b) 어제는부산에서도축구경기가있었다.

Kecha Pusanda ham fudbol musobaqasi bo'ldi.

Ammo, bosh kelishik qo'shimchasi boshqa qo'shimchalar bilan birga qo'llanila olmaydi:

a) 철수도왔니? (○)

b) 철수가도왔니? (x)

Cholsu ham keldimi?

Shuningdek, bir xil ma'nodagi bosh kelishikning “-께서” hamda “-에서”

qo'shimchalari yordamchi qo'shimchalar “-은/는” va “-도” bilan birga kela oladi:

a) 어머니께서는언니가다녀갔으면하고기다리십니다.

Oyim opam o'qishga ketishi bilan kuta boshlaydi.

b) 우리학교에서도다음주에소풍을간다.

Bizning maktab ham keying hafta sayohatga chiqadi.

-만, -부터, -까지 kabi yordamchi qo'shimchalar bilan ham bosh kelishik

qo'shimchasi-이/가 ni qo'llash mumkin¹⁷:

a) 나**만이**그날모임에참석하지못했다.

Faqat men o'sha kuni majlisda ishtirok eta olmadim.

b) 오늘**까지가**여름방학입니다.

Bugungacha yozgi ta'til edi.

2.3 Bosh kelishikning badiiy asarda qo'llanish doirasi va tahlili

Bosh kelishikning badiiy asarda qo'llanish darajasini o'rganish uchun koreys xalq ertaklaridan biri bo'lgan “반대로만하는아들” (“Quloqsiz bola”) ertagini oldik va uni tahlil qilamiz:

¹⁷이익섭, 한국어문법,서울대학교출판부,2004.-121 xx

옛날, 어느마을에아버지와아들이 살고있었습니다.

그런데,아들은무엇이든반대로만하엿습니다.

(Qadim zamonda bir qishloqda ota-va o'g'il yashagan ekan. Ammo o'g'il qanday ish bo'lsa-da aksini bajarar ekan.)

Yuqoridagi jumlada 아버지 va 아들 so'zlari ilk bor qo'llanilgani bois – 이 qo'shimchasi birikib kelgan. Xuddi o'sha shaxs keying gapda takrorlangani bois bu qo'shimcha -은 ga almashgan;

«강물은냄새가나니까샘물을길어오너라»하고아버지가말하면,
아들은«이니예요, 강물이더좋아요»하며강물을길어왔습니다.

아버지는반대로만하는아들때문에늘속이상하엿습니다.

그렇지만차츰아버지는어떻게하면반대로만하는아들을자기가원하는대로하게할수있
는지알게되었습니다.

그래서시원한물을마시고싶을때에는더운물을가져오라고하엿습니다.

그러면아들은시원한물을가져왔습니다. 샘물을마시고싶으면강물을길어오라고하였고,
고기^가먹고싶으면채소를먹자고하엿습니다.

(Otasi : “Dengizsuvininghidibor, shuninguchunbuloqsuvolibkel,” – desa,
o'g'li : ”yo'q, dengizsuviyaxshiroq,” – debdengizsuvidanolibkelarekan.

Otaaytilganishnifaqat

aksiniqiladigano'g'linio'ylabko'po'ksinibdi.Ammo,o'ylab-

o'ylabdonootaqandayqilibquloqsizo'g'linio'zizmigasolishningyo'linitopibdi.Bu
usulshundayediki,

otasovuqsuvichmoqchibo'lganidao'g'ligaissiqsuvolibkelishnibuyuribdi,
shundao'g'ilsovuqsuvolibkelibdi. Shundanboshlab,

¹⁸한국전래동화, Woongjin Publishing co, ltd 1989.

otao'g'ligabuloqsuviichmoqchibo'lsa, dengizsuviolibkeldeb,
go'shtyemoqchibo'lsa, mevayeylik, deyaboshlabdi.)

Yuqoridagi matnda kelgan

«고기**가**먹고싶으면채소를먹자고하엿습니다.»jumlada bosh kelishik maxsus usul orqali keltirilgan. Ya'ni bu yerda –**가**-를 qo'shimchasi o'rnida kelgan.«그렇지만차츰아버지는어떻게하면반대로만하는아들을자기**가**원하는대로하게할수있는지알게되었습니다.»bu gapda esa 자기 so'ziga qo'shilgan bosh kelishik aynan shu so'zga urg'u berayotganini bildiradi;

그러던어느날이였습니다. 아버지와아들**이**함께이웃마을에갔다돌아오는데, 갑자기비**가**내리기시작하였습니다. 하늘에구멍이라도뚫린듯억수같이내렸습니다. 아버지와아들**이**강가에도착하여보니, 강물**이**엄청나게불어나있었습니다.

«물**이**좀줄어들때까지기다리자구나.»

«아버지는겁쟁이예요.»

«네생각**이**그렇다면할수없지. 내**가**앞서강을건널테니따라오도록하여라.»

아버지는거친물살을헤치며간신히강을건넜습니다.

«얘야, 조심하여라. 그곳은바닥**이**깊이파여있단다.»

(Kunlarshundayo'taboshlabdi.Birkuniota-

o'g'ilqo'shniqishloqdanqaytayotganlaridato'satdankuchliyomg'iryog'aboshlabdi. Go'yo osmonda teshik paydo bo'lib, hamma yomg'ir ularning ustiga yog'ayotgandek edi. Ota-bola dengiz qirg'og'iga yetib kelishganda, dengiz suvi toshib, judayam tez oqayotganini ko'rishibdi. Shunda ota o'g'liga suv sathi kamayguncha kutib turish yaxshiroq ekanligini aytibdi. Ammo o'g'il otasini qo'rqqoqlikda ayblabdi. Shunda ota :“Sening fikring shunaqa bo'lsa na iloj, shunday qilganim bo'lsin! Ammo, men birinchi dengizga tushaman, sen mening ortimdan kelasan, ” debdi.

Ota dengiz o'tlariga o'ralib qolmasa-da, qiyinchilik bilan dengizning narigi qirg'og'iga o'tib olibdi va o'g'liga baland ovozda :”Ehtiyot bo'l, ko'pik chiqayotgan joyga oyog'ingni qo'ymaslikka harakat qil, u yer eng chuqur joy ekan,” deya uqtiribdi.)

Yuqorida keltirilgan “네생각이그렇다면할수없지.

내가앞서강을건널테니따라오도록하여라.» jumlasida 너 olmoshiga –ga qo'shilishi natijasida 내가 ga o'zgarganini kuzatamiz. Shuningdek, bosh kelishik ba'zi birkmalarda qotib qolganini, ya'ni ajralmas bo'lak bo'lib kelish holati ham mavjud bo'lib, «갑자기비가내리기시작하였습니다.»jumlasida 비(yomg'ir) so'zi 내리다 (yog'moq) so'ziga birikishi uchun –ga ko'makchi vazifasini bildirgan va shu holatda qotib qolgan;

아버지는너무나머지는발암에반대로말해야하는것을잊어버렸습니다.

아들이강을건너지시작하였습니다. 물거품이세계이는곳에다다르자,

아들이발을내디뎠습니다. 아들은곤물살에휩쓸렸습니다.

아버지가다급한목소리로외치자, 마을사람들이강가로달려왔습니다. 하지만,

아들이이미물살에휩쓸려떠내려간뒤라서찾을수가없었습니다.

(Otashunchalikshoshilganidangapningteskarisiniaytishlozimliginihamunut ibqo'yibdi.

Boladengiznikesibo'tishniboshlabdivako'pikchiqayotganjoygayetibkelgandaesaa tayin oyog'inibosibdi. Shuzahotidengiz o'tlariga chirmashib qolibdi.

Ota bor ovozi bilan baqirib, qishloq odamlarini dengiz tomonga boshlab kelibdi. Ammo allaqachon dengizga g'arq bo'lgan o'g'ilni topa olishmabdi.)

Bosh kelishik ba'zi grammatik birkmalar tarkibida ham ajralmas qism bo'lib kelishini quyidagi gap misolida

kuzatamiz:«아들이이미물살에휩쓸려떠내려간뒤라서찾을수가없었습니다.»(Allaqac

hon suvo'tlariga o'ralib qolgan bolani topa olishmabdi.) Yuqoridagi gapda -
ㄹ/을수가있다 grammatik birligida -가 qo'shimchasi yaxlit birikma bo'lib kelgan.

XULOSA

Koreys tilida bosh kelishikning qo'shimchalari mavjud va bu qo'shimchalar o'ziga xos ma'no va xususiyatga ega. Bosh kelishikning mazmuni, o'ri va qo'llanilish to'g'risida yuritilgan yuqoridagi fikrlardan, shuningdek, kurs ishi avvalida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. So'zga ta'kid ma'nosini yuklashda qo'llaniladi;
2. Ba'ziso'zlargabirikib,o'zakni qisman o'zgartiradi (너 - 네가, 누구-누가, 나-내가 kabi);
3. So'zlashuv usulida bosh kelishik tushib qoladi;
4. Bir gapda bir necha bor qo'llanishi mumkin;
5. Bosh kelishik hisob so'zlariga ham birikadi;
6. Bosh kelishik qo'shimchasi -이/가 ni -만, -부터, -까지 kabi yordamchi qo'shimchalar bilan qo'llaniladi;
7. Hissiyot fe'llari hisoblanuvchi 기쁘다, 슬프다,춡다, 징그럽다... kabi fe'llardan oldin kelgan ot yoki olmoshga ham bosh kelishik qo'shimchasi birikib keladi;
8. Bosh kelishik qo'shimchasi -이 va -가 bilan bir qatorda -께서 qo'shimchasi ham mavjud bo'lib, u ega vazifasida kelgan so'z hurmat ma'nosini ifodalaganda qo'llaniladi;
9. Bosh kelishikdagi so'z nufuzli tashkilot yoki guruh nomi shaklida kelsa, -에서 qo'shimchasi bosh kelishik qo'shimchasi sifatida qo'llaniladi;
- 10.Bosh kelishik qo'shimchasi o'rnida yordamchi qo'shimcha-은/는 qo'llanishi mumkin;
- 11."되다" fe'li va "아니다" sifatlaridan oldin qo'llanuvchi ot so'z turkumidagi so'zga , albatta,-이 yoki -가 qo'shimchasi qo'shiladi;

12. Bir gapda ikki xil predmet solishtirilganda bosh kelishik qo'shimchasi emas, yordamchi qo'shimcha –은/는 qo'llaniladi;
13. Bosh kelishik qo'shimchasi boshqa qo'shimchalar bilan qo'llanila olmaydi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Prezident asari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T: Ma'naviyat. 2008.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

2. Xolmanova Z.T , Tolshunoslikka kirish, T-2007
3. O'tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi, "Meriyus" T-2011
4. 타쉬켄트국립동반대학교. 한국어문학과. 2005

Koreys tilidagi manbaalar:

5. 이익섭, 한국어문법 1,서울대학교출판부,2004
6. 이익섭, 한국어문법 2,서울대학교출판부,2004
7. 김정숙, 한국어문법 1,서울, 커뮤니케이션박스, 2005
8. 이주행 , 한국어문법이해, 서울, 2002
9. 관용어사전 .-태학사.-1996.
- 10.개정판, 표준국어문법론, 서울대학교, 2001
- 11.위국인을위한한국어문법 1-2. 서울, 2005

Lug'atlar:

- 12.김문옥, 김준식, A.Ismoilova, S. Muhamadjonova.우-한사전(o'zbekcha-koreyscha lug'at)도서출판.베델사. 2006
- 13.김문옥,김준식.새한러사전.도서출판.2001
- 14.김병일.미르탈리보바 G, 이스마일로바 A, 김준식. 우즈베크어-한국어사전.사마르칸드국립외국어대학교.2009
- 15.동왕,김학수.러싱어-한국어사전.서울.고려대학교.러시아.문화연구소편. 2008
- 16.한국어고급 II.- 경의대학교출판국.-2003.

Foydalanilgan internet saytlari:

17.www.organization.kr.or.

18.www.google.com.

19.www.google.ru.